

# Bektemir tumanida yangi qo'shma korxona faoliyati ko'zdan kechirildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Bektemir tumanidagi "Prof- Milk" qo'shma korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda chorvachilik bilan birga go'sht va sutni qayta ishlash tarmog'i kompleks rivojlantirmoqda. Xususan, bugungi kunda sutni qayta ishlovchi 600 dan ziyod korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda tayyorlanayotgan sara mahsulotlar elimiz dasturxonidan joy oldi, xorija ham eksport qilinyapti.

"Prof-Milk" qo'shma korxonasi shu oyda ishga tushirildi. Loyiha qiymati 3 million dollar bo'lgan ushbu majmua Shveysariyaning "Tanotrade" kompaniyasi va «Toshelektroapparat» xususiy korxonasi hamkorligida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. Bu yerda 50 kishi ish bilan band.

Bu yerda 1,5 ming tonna mahsulot, pishloqning 10 ga yaqin turi ishlab chiqariladi. Joriy yilda esa eritilgan pishloq bu qatorni to'ldirishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi. Korxonani barqaror xomashyo bilan ta'minlash, mahsulotlar turini ko'paytirib, yangi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.



Shu yerda «BARTEC TRADE» kompaniyasi tomonidan import o'rnini bosuvchi ehtiyyot qismlar ishlab chiqarish loyihasi to'g'risida ma'lumot berildi.







Özbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI



Özbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI



Ozbekiston Respublikasi Prezidentining  
 MATBUOT XIZMATI



Ozbekiston Respublikasi Prezidentining  
 MATBUOT XIZMATI



**Manba**